

KONSTITUTSIYA - OLIY QADRIYAT

Bozarova Zumrad Urolovna

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Qashqadaryo akademik litseyi huquqshunoslik fani yetakchi o'qituvchisi

Norbo'taeva Saodat Rashidovna

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Qashqadaryo akademik litsey katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini davlat asosiy qonunida qay darajada mustaxkamlanganligi masalasi, davlatimiz asosiy qomusini isloh etish va unda inson huquqlarining o'rni borasida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: Demokratiya, huquq, davlat, erkinlik, himoya qilish, jamiyat, kafolat, O'zbekiston, Konstitutsiya, mamlakat, islohot, qonunchilik, asos.

KIRISH

Insoniyat rivojlangan dunyoda yashar ekan, hamisha erkinlik va o`z huquqlarini ta'minlanishiga intilib kelgan. Tarixda adolatli davlat haqida qarashlar bayon etilgan asarlar bisyor. Ayrim davlatlar tarixiy kurashlar natijasida mamlakatda inson huquqlarini himoyasini ta'minlovchi qonunlarga ega bo`lganlar. Jumladan, antik davlatlardagi 12 jadval qonuni, Angliyada erkinlik xartiyasi, Fransiyada inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari Dekloratsiyasi va boshqa shu kabi inson huquqlari bilan bog`liq qonunlarni misol keltirish mumkin.

Sohibqiron Amir Temur bobomizning «Qayerda qonun hukmronlik qilsa, o'sha yerda erkinlik bo'ladi», - degan o`giti sharqona huquqiy davlat qurishda asos bo`lib xizmat qiladi. Bu hikmat bugun ham o`ziga xos ma'no kasb etmoqda.

Tarixning yangi davri konstitutsionalizm davri bo`lib, davlatlarda inson huquqlarini ta'minlash vositasi ushbu normada aks etgan.

Hozirgi dunyoda inson huquqlari yetakchi o`rinni egallashi umume'tirof etilgan dalildir. Inson huquqlari masalasining har qanday sivilizatsiyalashgan, adolatli fuqarolik jamiyatini qurishdagi rolini kamaytirib bo`lmaydi.

Demokratik, huquqiy davlat qurishning bosh sharti asosiy huquq va erkinliklarni rag`batlantirish va himoya qilish hamda jamiyatda har bir insonning huquqlarini kafolatlashning haqiqiy tizimini yaratish hisoblanadi, deydi akademik A.Saidov.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — jamiyat tayanchi va yurtimiz taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlatimiz mustaqilligining yorqin ramzi, ko`p millatli xalqimiz xohish-irodasining qonuniy ifodasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Buni mazkur hujjatning birinchi moddasidan to oxirgi moddasigacha inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, vatan ravnaqi hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilib kelayotgan umumbashariy g`oyalari singdirilganida ham ko`rish mumkin. Asosiy qonunimizda buyuk ne'matlar orasida eng ulug`i—inson uchun degan g`oya ilgari surilib, uni ulug`lash, uning erkin kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish o`z aksini topgan. Boshqacha aytganda, fuqaro — jamiyat — davlat o`rtasidagi izchil hamkorlikning huquqiy yechimi asoslاب berilgan.

Konstitutsiyani yaratishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanildi. Bugungi O`zbekiston ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an'analari va uning mustaqil davlathaqidagi ko`p asrlik orzusini mujassam etgan. Manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz dunyoning 97 ta mamlakati to`plagan ilg`or konstitutsiyaviy tajribasini hisobga olib yaratilgan. Agar jahon konstitutsiyaviy rivojlanishi bilan bog`lab ko`rib chiqiladigan bo`lsa, uni XX asrning oxirgi o`n yilligidagi dunyoda qabul qilingan uchinchi avlod konstitutsiyalarini sirasiga kiritish mumkin.

Konstitutsiyamizning 30 dan ortiq moddalari bevosita inson huquqlari va erkinliklariga bag`ishlangan, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining deyarli barcha prinsipial qoidalarini o`zida mujassamlantirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O`zbekiston Konstitutsiyasi mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan bog`liq islohotlar, ularning qonunchilik asoslarini yaratish va takomillashtirishning boshlang`ich nuqtasi va asosi bo`lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, Konstitutsiyani takomillashtirishda inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxsiz huquqlari va manfaatlari masalasi asosiy o`rinni egallashi lozim. Shu munosabat bilan, Inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy markazi Konstitutsianing inson huquq va erkinliklariga bag`ishlangan normalarni takomillashtirish, ularni inson huquqlari bo`yicha xalqaro shartnomllar va O`zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga muvofiqlashtirish hamda Konstitutsiyada aks ettirish bo`yicha o`zining bir qator takliflarini Konstitutsiyaviy komissiyaga yo`lladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Amaldagi Konstitutsiya xorijiy ilg`or tajriba hamda xalqaro standart va talablarga har tomonlama mos keladi. Lekin, undagi ba'zi normalarni takomillashtirish, bugungi kun talablariga moslashtirishni zamon taqozo etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib inson va fuqarolarning bir qator huquq va erkinliklari yanada kengroq ma'noda qo`llash bo`yicha takliflar berilmoqda.

Loyihada 18-moddani yangi birinchi va ikkinchi qismlar bilan to`ldirish taklif etilgan. Unda, O`zbekiston Respublikasida barcha bir xil huquq va erkinliklarga ega bo`lib, jinsi, irqi, tanasining rangi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, nogironligi, tug`ilgan joyi, yashash joyi, yoshi, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy va xizmat mavqyeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar iborasi keltirilmoqda.

Kiritilayotgan taklifga ko_ra, 18-moddaning 3-qismini quyidagi tahrirda bayon etish maqchadga muvofiq, deb taklif berishmoqda, O`zbekiston Respublikasida barcha bir xil huquq va erkinliklarga ega bo`lib, jinsi, irqi, tanasining rangi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, nogironligi, tug`ilgan joyi, yashash joyi, yoshi, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy va xizmat mavqyeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Berilayotgan takliflar kelajakda inson va fuqarolarning erkin yashashlarini ta'minlaydi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan imkoniyatlar doirasida pedagoglarga ham qator yo`llar ochilmoqda. Jumladan shular samarasi o`laroq O`zbekiston tumani 2-sodn kasb-hunar maktabi direktori K.Ahmadjonovaning O`zbekiston konstitutsiyasining 30 yilligi munosabati bilan ko`krak nishoni bilan taqdirlanganligini uzoq yillik mashaqqatli mehnat mevasi desak mubolag`a bo`lmaydi. Bu insonni shaxsan hurmat qilishim, u kishiga havas qilishim chin ma`noda pedagog shaxsiga bo`lgan hurmatim ramzidir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Saidov A. X. Inson huquqlari umumiyl nazariyasi. yekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012 y.-3
2. Obidov R. O`zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlari qanday aks etgan? <http://hudud24.uz/ozbekiston>. 15-06-2022
3. Atovulloev Rustam. Inson huquqlarini ta'minlash – O`zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlarning bosh mezoni. <http://insonhuquqlari.uz/uz/news>
4. Chuboeva Ozodaxon. Yangi O`zbekiston – III renesansida xotin-qizlar ijtimoiy himoyasi. a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022) - Copenhagen:2022. ISSUE 13 – 226 p. 94-99 betlar.